

---

## **"Biz bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!"**

"Biz bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" shiori ostida Toshloq tumanida "Ma'naviyat marafoni" doirasi "Kasb odobi va madaniyati" mavzusida korxonalar, tashkilot va muassasalarda faoliyat olib borayotgan Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul etib birlashtirilgan xodimlarga "Ma'rifat soati" bo'lib o'tdi.

Tadbirda tuman hokimi o'rinbosari E.Madaminov, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi O.Majidov, O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat boshqaruv Akademiyasi Farg'ona mintaqaviy filiali o'qituvchisi Q.Uzoqov hamda korxonalar, tashkilot va muassasalardagi Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul etib birlashtirilgan xodimlar ishtirok etdi.

Mavzu yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat boshqaruv Akademiyasi Farg'ona mintaqaviy filiali o'qituvchisi Q.Uzoqov ma'ruza qildi.

2023-11-10 14:43:15